



**MENTHA PIPERITA L. NING KO‘KARUVCHANLIK VA
SAQLANUVCHANLIK KO‘RSATKICHLARI**

**Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, b.f.f.d.(PhD),
v.b. dots J.O.Jumaniyozov
magistrant A.D.Xudayberganova**

Annotatsiya. Mazkur maqolada qalampir yalpiz (*Mentha piperita L.*) o‘simligining botanik tavsifi, bioekologik xususiyatlari, xalq xo‘jaligi va tibbiyotdagi ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotlar davomida o‘simlikning Xorazm vohasi sho‘rlangan tuproq-iqlim sharoitidagi ko‘karuvchanligi, saqlanuvchanligi hamda vegetatsiya davridagi rivojlanish dinamikasi o‘rganildi. Kuzatishlar natijasida qalampir yalpizning yangi sharoitga yuqori darajada moslashishi, ko‘karuvchanlik ko‘rsatkichi 94,3% va saqlanuvchanligi 87,4% ni tashkil etishi aniqlandi. Shuningdek, o‘simlikning dorivor, antiseptik, aromatik va fitonsidlik xususiyatlari tufayli farmatsevtika, oziq-ovqat, kosmetika hamda ekologik yo‘nalishlarda istiqbolli ekin sifatida ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar. Qalampir yalpiz, *Mentha piperita L.*, Lamiaceae, ko‘karuvchanlik, saqlanuvchanlik, introduksiya, sho‘rlangan tuproq, vegetatsiya, bioekologik xususiyatlar, dorivor o‘simlik, efir moyi, fitonsid.

Аннотация. В данной статье представлены сведения о ботаническом описании, биоэкологических особенностях и хозяйственном значении мяты перечной (*Mentha piperita L.*). В ходе исследований были изучены показатели всхожести, сохранности и динамика роста растения в условиях засоленных почв Хорезмского региона. Установлено, что растение хорошо адаптируется к новым почвенно-климатическим условиям, а показатели всхожести и сохранности составили соответственно 94,3% и 87,4%. Также обосновано значение мяты перечной как лекарственного, антисептического, ароматического и фитонцидного растения, широко применяемого в фармацевтической, пищевой, косметической и экологической сферах.





Ключевые слова. Мята перечная, *Mentha piperita* L., Lamiaceae, всхожесть, сохранность, интродукция, засоленные почвы, вегетация, биоэкологические особенности, лекарственное растение, эфирное масло, фитонциды.


Annotation. This article presents information on the botanical description, bioecological characteristics, and economic importance of peppermint (*Mentha piperita* L.). The study investigated the germination capacity, survival rate, and growth dynamics of the plant under saline soil and climatic conditions of the Khorezm region. The results demonstrated that peppermint showed a high level of adaptation to new environmental conditions, with germination and survival rates reaching 94.3% and 87.4%, respectively. In addition, the medicinal, antiseptic, aromatic, and phytoncidal properties of the plant highlight its importance in the pharmaceutical, food, cosmetic, and ecological sectors.

Keywords. Peppermint, *Mentha piperita* L., Lamiaceae, germination, survival rate, introduction, saline soils, vegetation, bioecological characteristics, medicinal plant, essential oil, phytoncides.

Mentha piperita L. turi Yalpiz (*Mentha* L.) turkumi hamda Lamiaceae — labguldoshlar (yalpizdoshlar) oilasiga mansub dorivor o‘simlik hisoblanadi [1].

Qalampir yalpizning botanik tavsifi olimlarning ilmiy manbalarida batafsil yoritilgan. Ushbu o‘simlik ko‘p yillik o‘t bo‘lib, ildiz tizimi yaxshi rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Poyasi tik o‘sovchi, sershox bo‘lib, balandligi 1 metrqa qadar yetadi. Barglari qisqa bandli, o‘tkirlashgan, cho‘ziq tuxumsimon shaklda bo‘lib, chetlari mayda tishsimon qirrali tuzilgan. Barg uzunligi 8 sm, eni esa 2 sm gacha yetadi. Gullari pushti, ayrim hollarda binafsha rangda bo‘lib, boshhoqsimon to‘pgul hosil qiladi. Mevasi to‘rtta yong‘oqchadan iborat bo‘lsa-da, kam hollarda hosil beradi. O‘simlikning bargi va poyasi o‘ziga xos yoqimli hidga ega [160; 115-b., 39; 12–14-b., 65; 472–479-b.].

Qalampir yalpiz iyun–oktyabr oylarida gullab, iyul–sentyabr oylarida mevalash davrini o‘taydi. Mazkur o‘simlik tibbiyotda keng qo‘llaniladigan hamda dunyo miqyosida efir moyi ishlab chiqarishda muhim ahamiyat kasb etuvchi dorivor ekinlardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, u antiseptik, mikroblarga qarshi, yallig‘lanishga qarshi, spazmolitik va o‘t haydovchi xususiyatlarga ega aromatik o‘simlik sifatida qadrlanadi. Qalampir yalpiz oziq-ovqat, parfyumeriya va kosmetika sanoatida ham keng qo‘llaniladi. So‘nggi yillarda mutaxassislar ushbu o‘simlikni





fitonsid ajratuvchi hamda shahar ekologiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi dekorativ o'simlik sifatida ham e'tirof etmoqdalar [6].

Ma'lumki, dorivor o'simliklarni muayyan hududning tuproq-iqlim sharoitiga moslashtirish, ularni madaniy ekinlar qatoriga kiritish, to'g'ri rayonlashtirish hamda iqtisodiy jihatdan baholash uchun biologik xususiyatlarini chuqur o'rganish va eksperimental tadqiqotlar olib borish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, dorivor o'simliklarni plantatsiya usulida yetishtirish, yangi sharoitlarga moslashish qonuniyatlarini aniqlash hamda samarali agrotexnik tadbirlarni ishlab chiqish kompleks ilmiy yondashuvni talab etadi [3].

Shu sababli dorivor o'simliklarning ekish usullarini takomillashtirish, hosildorlik va mahsuldorlik darajasini oshirish, kasallik hamda zararkunandalarga chidamliligini aniqlash, shuningdek, ko'paytirishning samarali usullarini ishlab chiqish nazariy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega [4].

Tadqiqotlar davomida qalampir yalpizning ko'karuvchanlik jarayonlari ham muntazam kuzatildi. Kuzatish natijalariga ko'ra, o'simlik ko'chatlari mart oyida substratga o'tkazilgandan so'ng ko'karuvchanlik jarayoni nisbatan jadal kechgan. Jumladan, birinchi o'n kunlikda 17 dona ko'chat qayd etilib, ko'karuvchanlik 10,6% ni tashkil etgan bo'lsa, ikkinchi dekadada ushbu ko'rsatkich mos ravishda 41 dona va 25,6% ga yetganligi aniqlangan[5].

Aprel oyining birinchi dekadasi o'rtalarida namlik miqdorining ortishi natijasida ko'karuvchanlik jarayoni yanada jadallashgan va ko'chatlar soni 91 donaga yetib, umumiy ko'karuvchanlik 56,8% ni tashkil etgan. To'rtinchi o'n kunlikda esa eng yuqori natijalar kuzatilib, ko'chatlar soni 151 dona hamda ko'karuvchanlik darajasi 94,3% ga yetganligi qayd etilgan.

Ko'karuvchanlik jarayonlari yakunlangandan so'ng o'simliklarning birinchi vegetatsiya yilida yangi tuproq-iqlim sharoitiga moslashuv darajasini aniqlash maqsadida saqlanuvchanlik ko'rsatkichlari ham o'rganildi.

Qalampir yalpizda ko'karuvchanlik yuqori bo'lishiga qaramay, saqlanuvchanlik ko'rsatkichlari vegetatsiya davomida bosqichma-bosqich kamayib borgan. Jumladan, iyun oyining birinchi dekadada ko'chatlar soni 151 tani tashkil etgan bo'lsa, iyul boshida 143 dona va saqlanuvchanlik 94,7% ni tashkil etgan. Avgust oyining birinchi dekadada ko'chatlar soni 140 donaga kamayib, saqlanuvchanlik 92,7% ni tashkil





qilgan. Sentyabr oyida esa ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda 134 dona va 88,7% ga teng bo'lgan. Vegetatsiya davrining oxiri — oktyabr oyining birinchi dekadasida ko'chatlar soni 132 dona, saqlanuvchanlik esa 87,4% etib qayd qilingan.

Xulosa. Tadqiqot natijalari qalampir yalpizning Xorazm vohasi sho'rlangan tuproq-iqlim sharoitiga yaxshi moslashishini ko'rsatdi. O'simlik yuqori ko'karuvchanlik va saqlanuvchanlik darajasiga ega bo'lib, dorivor xomashyo sifatida istiqbolli ekin ekanligi aniqlandi. Qalampir yalpizni plantatsiya usulida yetishtirish farmatsevtika, oziq-ovqat va ekologik sohalar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Fenwick A.L., Ward S.M. Use of random amplified polymorphic DNA markers for cultivar identification in mint // Hort. Sci. 2001. Vol. 36. JMM. P. 761-764.
2. Дмитриева В.Л., Дмитриев Л.Б., Морозов А.И. Влияние на состав эфирного масла *Mentha piperita* L. сорта Медичка окультуривания дерново-подзолистой почвы // Материалы 44-й международной научной конференции молодых ученых и специалистов «Комплексное применение средств химизации в адаптивно-ландшафтном земледелии». М.: ВНИИА. 2010. С. 74-76.
3. Vasisht K, Sharma N, Karan M. Current Perspective in the International Trade of Medicinal Plants Material: An Update // Curr Pharm Des. - 2016. - Vol.22. - N. 27. - P. 4288-4336.)
4. Бушковская Л.М., Пушкина Г.П., Масляков В.Ю. Биотический фактор в агроценозах лекарственных культур как основа экологизированной защиты от вредных организмов // – М.: «ИП Скороходов», 2015. – 135 с.
5. Jumaniyozov J.O. “Xorazm vohasi tuproq iqlim sharoitida ildizpoyali dorivor o'simliklarning bioekologiyasi” diss, Toshkent 2025y 45-50 b
6. Mustafoyev.S.M. Botanika –Toshkent, 2002. 12-14 b

